

INGLIZ TILIDAGI TIBBIY ATAMALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA
QILISH JARAYONIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raxmatova Sunbula

Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti

Tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotation. This article describes the great social significance and importance of accurate translation of medical texts. Currently, there is a progressive development of domestic medicine and its entry into the international level, in connection with which there is an increasing need for the exchange of professional experience between doctors from different countries. One of the priority tasks facing future doctors is the creation of a universal terminological system that reflects the current state of this branch of scientific knowledge. Because new terms appear almost continuously, it becomes necessary to translate them into other languages for more productive cooperation of workers employed in the field of medicine.

Key words: Terminology, translation, medical professionals, scientific and technical method.

Аннотация. В данной статье описывается о большом общественном значении и важности точного перевода медицинских текстов. В настоящее время происходит развитие отечественной медицины и ее выход на международный уровень, в связи с чем возрастает потребность в обмене профессиональным опытом между врачами разных стран. Одной из приоритетных задач, стоящих перед будущими врачами, является создание универсальной терминологической системы, отражающей современное состояние этой отрасли научных знаний. Поскольку новые термины появляются почти непрерывно, возникает необходимость их перевода на другие языки для более продуктивного сотрудничества работников, занятых в области медицины.

Ключевые слова: Терминология, перевод, медицинские работники, научно-технический метод.

Soʻz yoki gapni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish insonlarning hayoti davomida juda muhim hisoblanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan soʻzlar, iboralar va jummalarni tarjima qilish imkonini beruvchi koʻplab turli xil kompyuter dasturlari va elektron lugʻatlarning paydo boʻlishi natijasida insonlarga bitta tildan ikkinchi tilga maʼlumotlarni tarjima qilishni yetarlicha osonlashtirdi. Shunday qilib, hatto chet tilini yaxshi bilmaydigan har qanday shaxs ushbu manbalardan foydalangan holda elementar tarjimani amalga oshirishi mumkin boʻladi, bu esa matnning umumiy maʼnosini tushunish imkonini beradi. Biroq, qoida tariqasida,

bunday tarjimalar, ayniqsa, maxsus sohalariidagi tarjimalar yetarli darajada to'g'ri qilinmasligi mumkin.

Bugungi kunda barcha yo'nalishlari bo'yicha faol rivojlanayotgan sohalardan biri bu- tibbiyotdir. To'g'rirog'i, tarjimaning eng murakkab turlaridan biri tibbiyot terminologiyasi tarjimasi hisoblanadi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasidagi tarjima hamisha yuqori talabga ega bo'lgan. Bu soha o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi, jumladan kasallik tarixining tavsifi, dori vositalarini qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar, kasallikning tavsifi, davolash sxemalari va boshqalar kirishi mumkin. Tibbiy matnlar ilmiy-texnikaviy uslubining normalari bilan tartibga solinganligi sababli, ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: aniqlik, izchillik, shaxssizlik, mavhumlik, ob'ektivlik, til vositalarini tanlashda standartlashtirish. Sintaksis jihatdan fikr to'liqligi, iboralar va nominal konstruktsiyalarning ustunligi bilan ajralib tibbiy terminlar ajralib turadi. Avvalo, ilmiy-texnikaviy uslubning lug'ati yuqori ixtisoslashgan va umumiy ilmiy terminologiya bilan ifodalanadi.

Tillararo taqqoslashda eng aniq namoyon bo'ladigan va tibbiy atamalarni tarjima qilish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni tahlil qilish va ularni hal qilish yo'llarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tibbiy matnlarni aniq tarjima qilish uchun uning ijtimoiy ahamiyatiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda tibbiyotining izchil rivojlanishi va uning xalqaro miqyosga chiqishi kuzatilmoqda, shu munosabat bilan turli mamlakatlarning shifokorlari bilan kasbiy tajriba almashishga ehtiyoj kuchaymoqda. Bo'lajak shifokorlar oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bu ilmiy bilimlar tarmog'ining hozirgi holatini aks ettiruvchi universal terminologik tizimni yaratilishidir. Yangi atamalarning deyarli uzluksiz paydo bo'lishi sababli tibbiyot sohasida band bo'lgan xodimlarning yanada samarali hamkorligi uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish zarurati paydo bo'ldi.

Tibbiy atamalar bilan ishlash, ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan axborot tarkibidagi tibbiy atamalarni tarjima qilishda o'quv jarayonini oson, qiziqarli va samarali qilish xususiyatlarini aniqlash, shu orqali darsni qiziqarli qilish va talabalarga tilni samarali o'rganish imkonini berishdan iborat.

Chet tilini o'rganishda tarjimaning ahamiyatini aniqlash, talabalarning yozish malakalarini rivojlantirishda to'g'ri tarjimaning o'rnini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shu jihatdan tibbiy terminlarni tarjima qilishda quyidagi vazifalarga e'tibor qaratilishi lozim:

- ingliz tilidagi ilmiy-texnikaviy uslubning xususiyatlarini tahlil qilish;
- "termin" tushunchasiga ta'rif berish;
- tibbiy atamalarni tarjima qilish xususiyatlarini ko'rib chiqish;

Tibbiyot sohasidagi materiallarning tarjimasi inson salomatligi va hayoti bilan bevosita bog'liq deb hisoblangan ilmiy-texnik sohadagi boshqa tarjima turlari orasida

o'ziga xos o'ringa ega. Shu sababli, o'qituvchi talabalar bilan tibbiy matn ustida ishlayotganida tarjima qiladigan talabaganing malakasiga qo'yiladigan talablar hozirda kunda tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligini ham e'tiborga olishi lozim. Tibbiy matnlarni tarjima qilish uchun talaba nafaqat chet tilini chuqur bilishi, balki o'zi tarjima qilayotgan ilmiy materialni, shuningdek, terminologik nazariya, tarjima nazariyasi va maxsus terminologiya asoslarini ham bilishida o'qituvchining mahorati yuqori darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tili o'qituvchisi ingliz tilidan tashqari yunon-lotin terminologiyasini ham bilishi kerak. Tibbiyotda aniqlik juda ham muhim hisoblanadi, chunki tarjimadagi har qanday xato juda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, hatto ingliz tilini biladiganlar uchun ham tibbiyotga doir tibbiy asbob-uskunalar va yangi dori vositalari bo'yicha maqola, kitob yoki ko'rsatmalarni to'g'ri tushunishlari uchun o'z ustida ishlashlari zarur.

Bundan tashqari, ingliz tilidagi tibbiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish ham juda muhimdir. Shuningdek, ko'p so'zlar bir xil talaffuz qilinadi, lekin mazmuni jihatidan boshqacha va bir-biridan butunlay farq qilishi mumkin.

Masalan, *ileum* [iliəm] – ingichka ichakning bir qismi, *illium* [iliəm]-chanoqning bir qism, ya'ni yonbosh suyagi.

Tibbiyotda nafaqat so'zning noto'g'ri talaffuzi, balki noto'g'ri yozilishi ham tibbiyot xodimlari uchun bemorga to'g'ri tashxis qo'yishda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xatoliklar, o'z navbatida, nafaqat bemorni noto'g'ri davolashga, balki uning o'limioga ham olib kelishi mumkin.

Masalan, *hepat/oma* so'zi *jigar raki* va *hemat/oma* so'zi esa *qon raki* degan ma'noni anglatadi.

Yoki aksincha, agar so'z to'g'ri yozilgan bo'lsayu, lekin talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, uning ma'nosini tushunish qiyin bo'lishi mumkin.

Masalan, *urethra* [juə'ri:θrə] so'zi O'zbek tiliga *siydik pufagidan tashqi yuzaga olib keluvchi siydik nayi* ma'nosini anglatasa, ammo *ureter* [ju'ri:trə] so'zi esa *buyrakdan siydik pufagiga olib keluvchi naylardan biri* degan ma'noni bildiradi.

Bu kabi ko'rib chiqilayotgan tibbiy atamalar tarjimasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, aynan atamalarni nafaqat yozib yodlash, balki atamalarni tez yod olish uchun ham talabalarni qiziqishini uyg'otish maqsadida yangi so'zlar bilan bog'liq turli o'yinlar, interaktiv usullar asosida qurilgan dars jarayoni yaxshi natija beradi, shu bilan birga aslida allaqachon o'rganilgan ko'nikmalarni ham mustahkamlaydi. O'qituvchi qaysi o'yin yoki interaktiv usulni eng yaxshi ishlashini

aniqlaganidan so‘ng, talabalarga topshiriq va diqqatini jamlashi uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talaba o‘xshash so‘zlar ishtirokidagi matnni o‘qiyotganda yoki so‘zning ma‘nosiga e‘tibor beradi, ya‘ni matn mazmuniga yaqinroq tushuncha hosil qiladi yoki til nuqtai nazaridan matnga e‘tibor qaratadi. Bu holda matn mazmuni yòqolishi mumkin va talaba matnni o‘qiyotganda ma‘nosini tushunmaydi. Tibbiyot bilan bog‘liq fundamental fanlar bòyicha talabalar tomonidan egallangan professional lug‘at yuqoridagi ingliz tilidagi matnni hech bòlmaganda ozgina tushunish va ularni iloji boricha tòg‘ri tarjima qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxmudov Z. M., Sharipov B. S. LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI HAQIDA FIKRLAR //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – С. 1028-1033.

2. Mardanovich M. Z. et al. Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5341-5352.

3. Salimovich S. B. RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2022. – T. 7. – №. 12. – С. 129-131.

4. Sharipov B. RETSIPROKLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1. – №. 19. – С. 63-66.

5. Ёрова С. ТИББИЙ НУТҚНИНГ ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ АСОСЛАРИ //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 35-38.

6. Ёрова С. К. Бевосита тиббиётнинг касб компетенцияси ва унинг деонтологик асослари //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – С. 212-218.

7. Aitmuratova Perkhon Genjebayevna THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS Дата публикации 2022/11/3 Журнал Web of Scientist: International Scientific Research Journal Том 3 Номер 11 Страницы 41-45

8. Aitmuratova Perkhon Genjebayevna, Esanova Maftuna Bakhadirovna THE IMPORTANCE OF TEACHING LATIN IN MEDICAL SCHOOLS Дата публикации 2022/12/17 Журнал Thematics Journal of Education Том 7 Номер 5

9. Shodikulova A. Z. The theory of an integrative approach to the analysis of the phenomenon of metonymy //Archive of Conferences. – 2021. – С. 56-57.
10. Shodikulova A. Z. et al. Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 13. – С. 3358-3367.
11. Dilbar I., Kamola S. TEACHING ENGLISH METHODS //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 5.
12. Ilhomjonovna S. K., Parvina O. Structural-Morphological Characteristics of Binary Tautologisms //International Journal on Orange Technologies. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 23-28.
13. Ozoda N. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O ‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 134-138.
14. Olimzoda P. Usage of video as audiovisual materials in foreign language classes //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 800-803.
15. Sunbula R. et al. Teaching foreign languages in medical institutes //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 1605–1613-1605–1613.
16. Raxmatova S. A. Shon O’Keysi asarlaridagi g’oya va badiiylik //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1367-1371.
17. Rakhmatova S. A. THE TEACHER’S SKILL IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE LESSON //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 725-727.
18. Saydullayevna N. N. et al. THE TREND TOWARDS INTRODUCING ENGLISH TEACHING AT PRIMARY LEVEL: Normurodova Nasiba Saydullayevna Samarkand state medical institute, Department of languages, English teacher yulduz. sherbekova@ mail. ru Sherbekova Yulduz Zokir qizi Samarkand state medical institute, Department of languages, English teacher yulduz. sherbekova@ mail. ru //Научно-практическая конференция. – 2022.
19. Sadullaevna N. N. The Emergence of the American Modernist Genre //Solid State Technology. – 2020. – Т. 63. – №. 4. – С. 94-100.
20. Saydullayevna N. N. The trend towards introducing english teaching at primary level //Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции– знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных. – С. 210.